

RADIKALLASHUV VA DINIY EKSTREMIZMNI OLDINI OLIISHDA HUQUQBUZARLIKLAR YAKKA TARTIBDAGI PROFILAKTIKASINING O‘RNI

Mukumjonova Khumora Dilmurod kizi

309-guruh, huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada radikallashuv va diniy ekstremizmga qarshi kurashishda profilaktik chora-tadbirlar shuningdek yakka tartibdagi profilaktikaning ahamiyati, radikallashuv va diniy ekstremizm tushunchasi, mustaqillikkacha hamda mustaqillikdan keyingi davrlarda yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikka tahdid solgan qora kuchlar, ularga qarshi kurashda Ichki ishlar organlarining o‘rni haqida bayon etilgan.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье описываются профилактические меры в борьбе с радикализацией и религиозным экстремизмом, а также значение индивидуальной профилактики, понятие радикализации и религиозного экстремизма, темные силы, которые угрожали миру и стабильности в нашей стране в период до и после обретения независимости, роль органов внутренних дел в борьбе с ними.*

Kalit so‘zlar: radikalizm, diniy ekstremizm, shovinizm, terrorizm, huquqbuzarliklar profilaktikasi, profilaktik chora-tadbirlar, yakka tartibdagi profilaktika.

Ключевые слова: радикализм, религиозный экстремизм, шовинизм, терроризм, профилактика преступности, меры профилактики, индивидуальная профилактика.

Asrlar davomida qadrlanib kelgan mustaqillik yurtimizga obodlik, tarqaqiyot va insonga qadr berdi. Biroq dunyoda raqobat, tahdidlar kuchayib borayotgan bir davrda yurt ravnaqi va mamlakat kelajagi haqida qayg‘urish har bir insonning muqaddas burchidir! Avvallari urushlar va hujumlar qurolli to‘qnashuvlar orqali sodir etilgan bo‘lsa, hozirda bu mafkuraviy tahdidga aylanib bormoqda. Agar jamiyatda mustaqil fikr bo‘lmasa o‘sha yerda radikallashuv, mavjud siyosiy tuzumdan norozilik hamda hokimyatga ishonchsizlik kuchayadi. Buning oqibatida esa ekstremizm, shovunizm va terrorizm kabi salbiy illatlar yuzaga kela boshlaydi.

Radikalizm – muayyan shaxs yoki guruhning mavjud ijtimoiy, siyosiy va madaniy holatini tubdan va muhosasiz o‘zgartirish istagidan iborat jarayondir. Radikalizm jarayonlari diniy yo‘nalishda ham kuzatilishi mumkin. Bunda shaxs o‘z diniy e‘tiqodini haq deb bilib, o‘zgacha e‘tiqodiy qarashlar va fikrlarga muhosasiz va keskinlik asosida yondashadi hamda ularni zo‘rlilik yo‘llari bilan o‘zgartirish tarafdori bo‘ladi. Bu holat ko‘pincha jamiyatda mavjud turli diniy konfessiyalarga keskinlik

bilan yondashish, bir din doirasidagi o'zga mazhab yoki qarashlarni murosasiz inkor etish hamda ularni raqib sifatida qabul qilishda namoyon bo'ladi.¹

Shu o'rinda haqiqiy musulmon bilan radikal musulmonning farqini ajoyib tarzda tushuntirib bergan Liviyaalik olim doktor Aliy Sallobiyning ajoyib qarashlarini keltirib o'tish lozim:

1. Haqiqiy musulmon o'z imoni bilan mashg'ul bo'ladi.

Radikal musulmon birovlarining imoni bilan mashg'ul bo'ladi.

2. Haqiqiy musulmon o'zini va boshqalarni jannatga kirishi uchun harakat qiladi.

Radikal musulmon boshqalarni do'zaxiy ekanini isbotlashga harakat qiladi.

3. Haqiqiy musulmon kishilarning xato va toyilishlarini kechirish uchun uzr qidiradi.

Radikal musulmon esa insonlarni jazolash va ularni gapirib yurish uchun ularning xatolari, ayblari va toyilishlarini qidirib yuradi.²

O'zbek xalqiga ma'lumki bunday g'oyaga ega shaxslar tomonidan davlatimiz va siyosiy tuzumga bir necha bor radikal g'oyaga ega ekstremistik tashkilotlar xavf tug'dirgan, jumladan, 2005-yil 13-maydagi Andijon voqealari, 1991-yil dekabrda Namangan va 1989-yil may-iyun oylarida O'zbekiston SSR Farg'ona viloyatida o'zbeklar va mesxeti turklari o'rtasidagi milllatlararo mojaro bilan bog'liq voqealar bo'lib o'tgan va buning tub ildizini yuqorida ta'kidlaganimizdek ekstremistik guruhlar tashkil etgan.

Ekstremizm tushunchasi azaldan mavjud tushuncha hisoblansada, hozirgi zamon mutaxassislari kengroq yondashgan holda ekstremizm bu mafkura va siyosatda keskinlik va ashaddiylik qarashlariga tarafdor bo'lish hamda biror maqsadga erishishda aynan shunga o'xshash vositalardan fodalanish harakati, deb ta'rif qiladilar. Shu bilan birga, ular ekstremizmni hodisa sifatida talqin qilib, u insonlar qiyinchilik bilan barpo qilgan tartiblar, tuzilma va institutlarga qarshi chiqib, ularning barqarorligini izdan chiqarish, yo'q qilishga intiladigan qarash ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning nazdida, ekstremizmning eng yomon va xatarli shakllaridan biri bu din omili asosidagi keskinlik harakatlaridir. Sababi, din omili asosiga qurilgan ekstremizm mafkuraga aylangan holda inson, jamiyat va ummat uchun nihoyatda ayanchli oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ekstremizm to'g'risidagi qonunda ekstremizmga shunday ta'rif beriladi:

Ekstremizm — ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishga, hokimiyatni zo'rlik ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o'zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasi;

ekstremistik faoliyat — quyidagilarga:

¹<https://jiau.uz/oz/news/210> O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi. Uzbekistan, Tashkent. 2024

²<https://hidoya.uz/uz/news/1107>

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi asoslarini zo'rlik bilan o'zgartirishga, hududiy yaxlitligi va suverenitetini buzishga;
hokimiyat vakolatlarini egallashga yoki o'zlashtirishga;
qonunga xilof qurolli tuzilmalar tuzishga yoki ularda ishtirok etishga;
terrorchilik faoliyatini amalga oshirishga;

zo'rlik yoki zo'rlik ishlatishga oshkora da'vat qilish bilan bog'liq holda milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atishga;

jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etishga, shuningdek ekstremistik tashkilotlarning atributlarini yoki ramziy belgilarini tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etishga;

biror-bir ijtimoiy guruhga nisbatan siyosiy, mafkuraviy, irqiy, milliy, etnik yoki diniy adovat yoxud dushmanlik sababli ommaviy tartibsizliklarni amalga oshirishga;³

Dindagi ekstremistik g'oyalarning tarafdori bo'lgan kishi buzg'unchi guruhlar va firqalarga ergashib qoladi. Diniy ekstremistik g'oyalarni targ'ib qiladigan oqim ishlarida faol bo'lishga intiladi. Bu esa quyidagi zararli oqibatlarni paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin:

- oilasi, qarindosh-urug'lari va yaqin insonlaridan mahrum bo'lish;
- jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini yo'qotish, chuqur ilm olish, yaxshi kasb egasi bo'lish va hayotda munosib o'rin egallash imkoniyatlaridan ayrilish;
- yon-atrofidagi jarayonlarga shaxsiy munosabatga ega bo'la olmay, voqelikka faqat ekstremistik oqim nuqtayi nazaridan qarashga majbur bo'lish;
- umrini qamoqda yoki o'zga yurtlarda xor-zor va sargardonlikda o'tishi, ota-onasi, turmush o'rtog'i va farzandlari oldidagi insoniy majburiyatlarini bajara olmaslik.

Bundan tashqari, ekstremistik g'oya va yot diniy qarashlar jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy muhiti va davlatning tadrijiy rivojlanishiga ham katta zarar keltirish tahdidi mavjud. Bunday holat quyidagilarda aks etadi:

- dinni niqob qilgan oqim a'zosi qonuniy jazoga tortilishi yoki "hijrat" da'vosida xorijiy yurtlarga chiqib ketishi oqibatida jamiyatning birlamchi bo'g'ini bo'lgan oilalarda parokandalik yuzaga keladi, farzandlar tarbiyasiz, oilalar esa boquvchisiz qoladi;
- jamiyatda an'anaviy qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatish tizimi va tadrijiy rivojlanish jarayoni buziladi, mazkur jamiyatda asrlar osha muhim o'rin tutgan milliy, madaniy, tarixiy qadriyatlar ahamiyatini yo'qotishi oqibatida ma'naviyat pasayadi;
- ekstremistik va terrorchilik harakatlari sodir etilishi orqali jamiyatda "yovuzlik chegarasi" pasayib, odamlar qotillik, qiynoq, bosqinchilik, garovga olish, qulchilik kabi jinoyatlarga ko'nikib qoladi. Ayni chog'da ushbu yovuzliklar jamiyatning muayyan qismida vahima uyg'otadi, qochoqlar oqimi paydo bo'ladi;

³ <https://lex.uz/docs/-3841957>

– terrorizm va ekstremizm, ular oqibatida kelib chiqadigan ijtimoiy beqarorlik jamiyatda kriminal jinoyatlarning avj olishiga xizmat qiladi;

– davlat tomonidan xavfsizlik choralari ko'rish uchun byudjet mablag'larini sarflashi, shuningdek, terroristik harakat oqibatida ko'rilayotgan moddiy zarar jamiyatga iqtisodiy jihatdan og'irlik keltiradi. Oqibatda ishsizlik oshadi, ijtimoiy muhofazaga yo'naltirilgan loyihalar bajarilmay qoladi, aholining turmush darajasi pasayadi;

– davlatning yangi rivojlanish bosqichiga o'tishi va bu orqali jamiyat farovonligi hamda turmush tarzining yuksalishining to'xtashiga olib keladi.

Shuningdek, din asosida keskinlikka berilish oqibatida har bir jamiyatning kelajagi bo'lgan yoshlarning dunyoqarashida o'zi istiqomat qilayotgan davlatiga ishonchsizlik, tuzumni o'zgartirishga bo'lgan ishtiyoq, boshqa millat vakillari va ularning urf-odatlariga qarshi chiqish singari tarqoqlikni ta'minlaydigan his-tuyg'ularning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Bunday yoshlar esa xorijdagi soxta "din da'vatchilari"ning yolg'on chaqiriqlariga aldanishi, Yaqin Sharq mamlakatlaridagi nizo va urush o'choqlariga intilib, begunoh insonlarning umriga zavol bo'lish, o'z ona-yurtiga qurol o'qitalish darajasidagi manqurtga aylanish ehtimolini paydo qiladi.

Afsuski, bunday yot g'oyalar bizning xalq va millatga ham yetarli darajada xavf tug'dirish bilan birga yoshlarning ongini zaxarlash va o'z domiga tortishga ham ulgurgan. Shu sababli, radikalizm, dininy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash birinchi prezidentimiz I.A.Karimov va yurtboshimiz SH.M.Mirziyoyev tomonidan samarali chora tadbirlar ishlab chiqilgan va bunga qarshi Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar organlari, Qurolli kuchlar hamda tegishli davlat organlari bilan hamkorlikda keskin choralar ko'rilgan.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga yo'llagan tabrigida soha xodimlarining xalqimiz oldida turgan ulkan vazifasi, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning profilaktikasi hamda unga qarshi kurashish, jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi ustuvor masalalar hamda Ichki ishlar organlari sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga alohida to'xtalib o'tgan, xususan, davlat rahbarining tabrigida ta'kidlanishicha, so'nggi yillarda ichki ishlar organlarini chinakam xalqchil tuzilmaga aylantirish, aholi uchun **barcha shahar va qishloqlarda xavfsiz yashash** va mehnat sharoitini yaratish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Eng quyi bo'g'indagi vaziyat va muammolarni chuqur o'rganish asosida har qaysi mahallani jinoyatdan xoli hududga aylantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu maqsadda 350 dan ziyod mahallada huquq-tartibot maskanlari tashkil etilgan, **9,5 mingga yaqin mahallada profilaktika inspektorlari** faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Ushbu ishlarning mantiqiy davomi sifatida joriy yildan boshlab "mahalla yettiligi" tizimi tashkil etilgan. Endi profilaktika inspektori ana shu tizimning eng faol a'zosiga

aylanib, vaziyatni xonadonlar kesimida o'rganadi. Birinchi navbatda, huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabr ko'rish ehtimoli yuqori bo'lgan fuqarolarni aniqlab, ularning ijtimoiy-maishiy muammolarini "mahalla yettiligi" imkoniyatlaridan foydalangan holda hal etish choralari ko'radi.

"Eng muhimi, joylarda voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquqiy ongini oshirish, ularni sog'lom turmush tamoyillari asosida tarbiyalash orqali ijtimoiy jihatdan xavfli xatti-harakatlar sodir etilishining barvaqt oldini olish bo'yicha amaliyot yo'lga qo'yiladi.

Biz Yangi O'zbekiston sharoitida "Barcha islohot va o'zgarishlar – inson qadrini yuksaltirish uchun" degan ezgu tamoyilga sodiq qolgan holda, shu yo'lda boshlagan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur. Bu borada o'tgan davrda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida yaratilgan mustahkam huquqiy bazaga tayanamiz", — deyiladi tabrikda.

Shuningdek, prezident ichki ishlar organlari sohasiga raqamli texnologiyalar, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalariga asoslangan zamonaviy ish yuritish vositalari, sun'iy intellekt yordamida faoliyat ko'rsatadigan axborot-ma'lumot tizimlari jadal tatbiq etilayotganini ta'kidlaydi.

"Keyingi yillarda ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratildi. Jumladan, bo'lajak xodimlarni bolaligidan boshlab vatanparvarlik ruhida, yuqori malakali huquqshunos sifatida tayyorlash amaliyoti yo'lga qo'yildi. Har bir xodim navbatdagi unvonni olishi uchun majburiy tarzda kasbiy malakasini oshirishi, rahbarlik lavozimiga tayinlanishi uchun **Ichki ishlar vazirligi akademiyasining boshqaruv magistraturasida** tahsil olishi belgilangan va bunday tajriba o'z ijobiy samarasini bermoqda", — deya qayd etadi davlat rahbari.

Shu bilan birga, ta'kidlanishicha, ichki ishlar organlari tomonidan ko'rsatilayotgan davlat xizmatlarining 80 foizi elektron shaklga o'tkazilib, tizimda byurokratiya va fuqarolarni sarson qilish holatlari bartaraf etiladi. Har bir faoliyat yo'nalishi bo'yicha ijtimoiy fikrni o'rganish va jamoatchilik tomonidan monitoring qilib borish amaliyotini "mahalla – tuman – viloyat – respublika" tamoyili asosida tashkil etish choralari ko'rish lozim.

"Muxtasar aytganda, ichki ishlar tizimidagi islohotlarimizning amaliy natijasini sohaning har bir xodimi, birinchi navbatda, xalqimiz o'z kundalik hayotida sezishi shart", — deydi prezident.⁴

Tashkil etilgan mahalla huquq tartibot maskanlari va tayanch punktlarida profilaktika inspektorlari tomonidan amalga oshirilayotgan profilaktik chora-tadbirlar o'z samarasini bermoqda. Profilaktikaning asosiy maqsad va vazifasi huquqbuzarliklarning oldini olish, unga qarshi kurashish va "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" gi Qonunning uchinchi moddasida "**Huquqbuzarliklar profilaktikasi** — huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzar-

⁴ <https://daryo.uz/2023/10/25/shavkat-mirziyoyev-ichki-ishlar-organlari-xodimlari-va-faxriylarini-tabriklaydi>

liklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartib-dagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi"⁵ – deya ta'rif berilgan.

Profilaktika inspektorlarining xizmat jarayoni turli xil shaxslar toifalari bilan ishlashni taqozo etadi, jinoyat kodeksining turli moddalarida nazarda tutilgan jinoyat sodir etganlar, retsidivist shaxslar, voyaga yetmaganlar, xotin-qizlar shuningdek jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilganlar. Ular orasida yuqorida takidlaganimizdek, muqaddam diniy ekstremistik tashkilot a'zolari yoki radikal qarashlarga ega shaxslar ham uchrab turadi. Bunday shaxslar bilan profilaktika inspektorlari yakka tartibdagi profilaktikani amalga oshirishlari samaraliroqdir.

Radikal qarashlarga ega yoki noto'g'ri diniy bilimlarga ega bo'lgan shaxslarni ruhiyati va psixologiyasiga to'g'ri ta'sir o'tkazish, mamlakatimizdagi demokratiya, inson huquqlari hammda inson qadri tamoyilini ularning ongiga to'g'ri singdirish ham Ichki ishlar organi xodimining kasbiy mahorati xisoblanadi. Bunda ulardan yuqori malaka, bilim va ko'nikma talab etiladi. Profilaktika inspektorlari yakka tartibdagi profilaktik chora tadbirlar doirasida bir qancha usullar orqali radikallashuv va diniy ekstremizmning profilaktikasini amalga oshirishlari mumkin. Xususan, bugungi kunda yoshlar va o'smirlar o'rtasida avj olayotgan zo'ravonlik uchramoqda buning oldini olishda ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish sport va madaniy-ma'rifiy tadbirlarga jalb etish, o'qish va to'garaklarda ham ularni doimiy nazorat qilish kerak bo'ladi.

Yurtimiz ekstremizm va terorizmga qarshi kurash borasida jahon hamjamiyati uchun namuna bo'lishi mumkin bo'lgan samarali shlar qatorida quyidagilarni qayd etish mumkin:

To'g'ri yo'ldan adashganlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ularni sog'lom hayotga qaytarish maqsadida mazkur shaxslar bilan keng jamoatchilikni jalb etgan holda tushuntirish-profilaktika ishlarini tizimli tashkil qilish, ularni maxsus ro'yxatdan chiqarish bo'yicha mexanizm yaratildi. Mazkur mexanizmning samarasi sifatida aqidaparastlik g'oyalari ta'siriga tushgan 16 mingdan ziyod fuqarolarning ichki ishlar organlarining maxsus hisobidan chiqarilishi jamiyatda katta ijobiy rezonans berdi.

Yoshlarni ilm-ma'rifatga o'rgatish, ularga islom dinining insonparvarlik mohiyati, islom madaniyatining asl qadriyatlarini etkazish, ma'rifiy islom ta'limoti, buyuk ajdodlarimizning ulkan ma'naviy merosini chuqur o'rganish, jamiyatda diniy va milliy bag'rikenglik va hamkorlikni mustahkam qaror toptirish orqali aholi, ayniqsa, yoshlarda aqidaparast g'oyalarga nisbatan mustahkam ma'naviy himoya qobig'i shakllantirish maqsadida Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Samarqandda hadis va kalom ilmi maktabi,

⁵ <https://lex.uz/mact/-2387357> O'RQ-371 son

Buxoroda tasavvuf maktabi, Qashqadaryoda aqida maktabi, Farg'onada islom huquqi (fiqhi) ilmiy maktablari ochildi. Shuningdek, Davlat Rahbari darajasida respublikada mavjud diniy konfessiya rahbarlari bilan muloqotlar uyushtirilib, barcha din vakillariga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining diniy ekstremizmga qarshi kurash, millatlararo va konfessiyalararo hamkorlikni yanada kuchaytirishga yo'naltirilgan kompleks tadbirlar dasturi qabul qilinadi. Ushbu dastur doirasida davlat va jamoat tashkilotlari, mahalla yig'inlarida, aholining turli qatlamlari orasida ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq tahdidlarning oldini olishga qaratilgan seminar, uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazish yo'lga qo'yilgan.

Aqidaparastlik g'oyalari tarqalishini oldini olish uchun OAV va boshqa axborot etkazish vositalaridan samarali foydalanishga urg'u berilmoqda. Xususan, "Diniy ekstremizm – kelajakka tahdid", "ekstremizm va terrorizm – taraqqiyot kushandasi", "Ogoh bo'ling "Sakta", "Din niqobi ostidagi axborot xurujlari" nomli bukletlar tayyorlanib, mahallalarga, turli vazirlik, tashkilot va idoralar orqali aholiga etkazilmoqda.

Xorijdagi mehnat migrantlari, talabalar va vaqtincha istiqomat qilayotgan vatandoshlarimizni ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolishini oldini olish yuzasidan zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizning taniqli ulamolari Rossiya Federatsiyasining Moskva, Sankt-Peterburg, Ekaterinburg, Novosibirsk va Qozon shaharlari, Chuvash Respublikasi, Sibir o'lkasi, Sverdlovsk va Omsk viloyatlariga Ukrainaning Kiev shahriga xizmat safariga yuborilib, mazkur tashriflar davomida o'tkazilgan diniy-ma'rifiy uchrashuvlarda ma'rifiy islom ta'limoti hamda hozirda buzg'unchi oqimlar tomonidan noto'g'ri talqin qilinayotgan "hijrat", "jihod", "shahidlik" kabi tushunchalarning asl mohiyati haqida keng tushunchalar berilmoqda.

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqida xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etishi, shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa ekaniga e'tibor qaratildi.

"Ekstremizm g'oyalari ta'siriga tushib qolgan, to'g'ri yo'ldan adashgan fuqarolar ijtimoiy rehabilitatsiya qilinmoqda, ularni sog'lom hayotga qaytarish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Dunyoda terrorizm tahdidlari, ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi, asosan, kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi.

Bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir.

Shu nuqtai-nazardan, Prezidentimizning ikki global ahamiyatga ega, ya'ni yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat — BMTning “Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konventsiya”sini ishlab chiqish hamda BMT Bosh Assambleyasining «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish haqidagi takliflari barcha mamlakatlar tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi va qo'llab-quvvatlandi.⁶

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, mintaq va umuman dunyodagi vaziyatning murakkabligiga qaramay, mamlakatimizning yangi islohotlar va rivojlanish davrida Prezident Shavkat Mirziyoev rahnamoligida amalga oshirib kelinayotgan oqilona ichki va tashqi siyosat hamda xalqimizning kuchli irodasi, mehnatsevarligi, bag'rikengligi va ma'rifatparvarligi tufayli mamlakatimizda tinchlik va barqarorlik ta'minlanib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://iiu.uz/uz/news/210> O`zbekiston xalqaro islom akademiyasi. Uzbekistan, Tashkent. 2024
2. <https://hidoya.uz/uz/news/1107>
3. <https://lex.uz/docs/-3841957>
4. <https://daryo.uz/2023/10/25/shavkat-mirziyoyev-ichki-ishlar-organlari-xodimlari-va-faxriylarini-tabrikladi>
5. <https://lex.uz/mact/-2387357> O'RQ-371 son
6. <https://hidoya.uz/uz/news/843>

⁶ <https://hidoya.uz/uz/news/843>